

Дополнительное соглашение № 1

к Договору на оказание услуг сотовой радиотелефонной связи в системе Postpaid № FER-2018070253992 от 20.07.2018 г. между ООО «COSCOM» и Хашимият Ушурмоқов (полное наименование Корпоративного клиента)

г. Коканд «31» 01 2022 г.

ООО «COSCOM», именуемое в дальнейшем «Компания», в лице генерального директора Шишковского А.Ю., действующего на основании Устава и Хашимият Ушурмоқов (полное наименование Корпоративного клиента) в дальнейшем «Клиент»

в лице А. Махмудиев (ФИО руководителя), действующего на основании

FER39 в соответствии с Договором на оказание услуг сотовой и радиотелефонной связи в системе Postpaid № FER39-2018070253992 от 20.07.2018 г. именуемый в дальнейшем «Договор», настоящим заключают Дополнительное соглашение о нижеследующем:

1. Дополнить Договор пунктом 4.11. следующего содержания:
«4.11. Стороны по настоящему Договору достигли согласия о величине договорной цены на основании выбранных Клиентом Услуг, указанных в Приложении «А» к Договору, общая сумма которой на период «31» 01 2022 г. по «31» 03 2022 г. составляет (2850.000 сум) сум с НДС. В случае превышения Клиентом вышеуказанной суммы, Стороны обязуются заключить дополнительное соглашение, покрывающее фактические и/или предполагаемые начисления. Все взаиморасчеты осуществляются на основании счетов-фактур на оказание Услуг, выставленных Компанией, и подтверждаются, в случае необходимости, актами сверки.»
2. Стороны договорились оставить в силе и без изменения все остальные пункты и условия Договора, не предусмотренные настоящим Дополнительным соглашением.
3. Дополнительное соглашение является неотъемлемой частью Договора и носит обязательный характер при взаиморасчетах Сторон, выполнении обязательств по Договору и при несении ответственности Сторонами.
4. Клиент обязуется произвести предоплату в размере 100% в течение 5 банковских дней с момента регистрации в Казначействе Республики Узбекистан настоящего Дополнительного соглашения.
5. Окончательный расчет производится в течение 5 банковских дней после подписания акта сверки с Компанией.
6. Настоящее Дополнительное соглашение заключено в двух идентичных по содержанию и юридической силе экземплярах, по одному для каждой из Сторон.
7. Настоящее Дополнительное соглашение вступает в силу после его подписания обеими Сторонами и регистрации в Казначействе Республики Узбекистан и действует до 31.03.2022

Компания

ООО «COSCOM»
Республика Узбекистан
г.Ташкент, Яккасарайский район,
ул.В. Вахидова, 118
Р/с: 2020800000457913001
В ОПЕРУ АКБ «Узпромстройбанк»
Код банка 00440 ОКЭД 61200
г. Ташкент ИНН 201788904
А.Ю. Шишковский

подпись
М.П.

Клиент

Ушурмоқов турмуш ХОКЕРАЛИ
Наврӯш моқоми
ул. 22360302112010101
ул. 2001942201010101
Ушурмоқов турмуш
ул. 22360302112010101
Ташкент ш. 55 х.н.н.
А. Махмудиев

ФИО, подпись
М.П.

Ушурмоқов А. Махмудиев

Ucell	FER39-2018070253992	20.07.2018	39412779	Farg'ona
Postpaid tarmog'ida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnoma	Shartnoma raqami	Shartnoma tuzilgan sana	Account Id (Ro'yxatga olish raqami)	Shahar (Shartnoma tuzilgan joy)

Kompaniya — «COSCOM» mas'uliyati cheklangan jamiyati («Ucell» SB), Ustav asosida faoliyat yurituvchi bosh direktor Andrey Yurevich Shishkovskiy.
Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100031, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, V.Vohidov ko'chasi, 118.
Bank rekvizitlari: H/r: 2020800000457913001 Toshkent sh. "O'zsanooatqurilishbank" ATB Operatsion boshqarmasida. Bank kodi 00440
Ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari: STIR 201788904, IFUT 61200

Mijoz:	ХАКИМИЯТ УЧКУПРЮКСКОГО РАЙОНА ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ			
	Yuridik shaxs nomi yoki jismoniy shaxs F.I.O. (to'liq)			
Bank rekvizitlari:	p/c 100022860302217011204018003, Марказий банк, МФО 00014, ИНН 200194220			
	Yuridik shaxs bank rekvizitlari yoki jismoniy shaxs pasport ma'lumotlari		JShSHIR (jismoniy shaxs uchun)	
Yuridik manzili:	Uzbekistan, ФЕРГАНСКАЯ УЧКО'ПРИК ТУМАНИ БЕГОВОД Q-GI			
	Yuridik shaxs manzili yoki jismoniy shaxsning doimiy, vaqtinchalik propiska qilingan joyi			

Alohida holda «Tomon» deb va birgalikda «Tomonlar» deb ataluvchi Kompaniya bir tomondan va Mijoz ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani (keyingi o'rinlarda «Shartnoma» deb ataladi) quyidagilar haqida tuzdilar.

1.1. Kompaniya Mijoz tomonidan tanlangan (Shartnomaga qo'shimcha «A» Ilovaga) ro'yxatga va hajmlarga muvofiq tarzda uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko'rsatadi, Mijoz esa ulardan foydalanadi va haqini to'laydi.

2. Tomonlarning majburiyatlari

2.1. Kompaniya majburiyatlari:
 2.1.1. Shartnomaning amal qilish muddati davomida foydalanishi uchun Mijozga Kompaniyaga tegishli bo'lgan abonent raqam(lar)ini, shuningdek SIM-kartani (ICC ID SIM CARD) taqdim etish. SIM-karta qiymati ulanish narxiga kiritilgan. Abonent raqami va SIM-karta raqami Shartnomaga qo'shimcha «A» Ilovada ko'rsatilgan.
 2.1.2. Mijoz tomonidan Shartnomaning 4-bo'limiga muvofiq tarzda oldindan to'lov kiritilganidan keyingi 1 (bir) ish kuni davomida Mijozga o'z Xizmatlarini ko'rsata boshlash.
 2.1.3. Mijozning shaxsiy hisobida pul mablag'lari mavjud bo'lganida, Mijoz tomonidan tanlangan ro'yxatga, shuningdek Kompaniyada amalda bo'lgan tarif rejalariga muvofiq va joriy sanadagi narxlar asosida Mijozga o'z Xizmatlarini ko'rsatish. Mijoz tomonidan tanlangan Xizmatlarni ro'yxati Shartnomaga qo'shimcha «A» Ilovada ko'rsatilgan va quyidagi hollarda o'zgartirilishi mumkin:
 2.1.3.1. yuridik shaxslar uchun - yozma tarzda yoki Kompaniya tomonidan ko'zda tutilgan boshqa usul larda murojaat etilganida;
 2.1.3.2. jismoniy shaxslar uchun - sotuv ofislariga bevosita o'zi murojaat etib, o'rnatilgan namunadagi «Shartnomaga qo'shimcha «A» Ilovaga qo'shimchalar kiritish uchun ariza»ni to'ldirganida, yoki Kompaniya tomonidan ko'zda tutilgan boshqa usullarda murojaat etganida.
 2.1.4. Hisobot davri bo'yicha ko'rsatilgan Xizmatlar uchun hisobvaraqa-fakturani shakllantirish, Soliq.uz soliq veb-sayti orqali mijozga hisobvaraqa-fakturani taqdim etish. Mijoz tomonidan tanlangan tartibda to'lov uchun tafsilotlar va hisobvaraqlarni taqdim etish.
 2.1.5. Mijozga Shartnoma shartlarining, Xizmatlar narxlarining, ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatining, to'lov tartibi va shaklining, to'lov valyutasining o'zgartirilishi haqida mazkur o'zgartirishlar kiritilishidan kamida 5 (besh) kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali yoki Kompaniya tanlagan boshqa usulda xabar berish, agarda o'zgartirishlar kiritilishi Mijoz holatining yomonlashuviga olib kelsa - mazkur o'zgartirishlar kiritilishidan kamida 10 (o'n) kun oldin Mijozni xabardor qilish. Agarda Kompaniyaga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Mijoz bundan bexabar qolsa, u holda Kompaniya javobgar bo'lmaydi va e'tirozlarni qabul qilmaydi.
 2.1.6. Mijoz nomidan Kompaniya ushbu Shartnomaning 2.2.4-bandida ko'rsatilganidek xabar olganida, Xizmatlar ko'rsatishni vaqtincha to'xtatib turish. Bunday xabar olinguniga qadar ko'rsatilgan Xizmatlar haqi Mijoz tomonidan to'lanadi.

2.2. Mijozning majburiyatlari:

2.2.1. Kompaniya tomonidan ko'rsatiladigan Xizmatlar haqini o'z vaqtda to'lab borish.
 2.2.2. Kompaniya hisoblarini va hisobvaraqa-fakturalarini olish hamda Shartnoma va/yoki Xizmatlar shartlariga ko'ra ularni to'lash.
 2.2.3. Mijoz tomonidan tanlangan Xizmatlar narxining 15% idan kam bo'lmagan miqdorda oldindan to'lov qiymatini kiritish.
 2.2.4. SIM-karta yo'qotib qo'yilgan, yo'q qilingan, o'g'irlangan, yo'qolib qolgan holatlarda zudlik bilan Kompaniyaga xabar berish:
 - yuridik shaxslar uchun - yozma shaklda;
 - jismoniy shaxslar uchun - yozma va/yoki og'zaki shaklda, Kompaniya tomonidan o'rnatilgan tartibga muvofiq, Mijozni albatta identifikatsiyalashtirgan holda.
 Ko'rsatilgan shartlarga Mijoz tomonidan amal qilinmasligi holatida, Kompaniya tomonidan Mijozning SIM-karta yo'qolganligi haqida bildirib va Xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatishni so'rab yozma/og'zaki tarzda qilgan murojaati olinguniga qadar, yo'qotilgan/yo'qolib qolgan SIM-kartaning ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan Kompaniya Xizmatlarining to'lovi bo'yicha mas'uliyatni Mijoz o'z zimmasiga oladi.
 2.2.5. To'lovni naqd pulsiz shaklda amalga oshirganida, bank to'lov hujjatlarida Kompaniyaning hisob-kitoblar tizimida (billingda) Mijozga berilgan Mijozning individual raqami (ACCID), to'lov amalga oshiriladigan Account Id raqamini aytish, shuningdek naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etish.
 2.2.6. Mijozning Shartnomada ko'rsatilgan har qanday rekvizitlari o'zgarigan holatda, ularning rasman ro'yxatga olinganidan keyingi 5 (besh) kun mobaynida Kompaniyani mazkur o'zgarishlardan yozma ravishda xabardor qilish.
 2.2.7. Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini Kompaniyani yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ular ixtiyoriga o'tkazmaslik.
 2.2.8. Kompaniya tomonidan kirish taqdim etilgan: a) Internet tarmog'i; b) kontent-provayderlar materiallari, ma'lumotlari, xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan barcha xatirlarni o'z zimmasiga olish va ular uchun to'liq mas'ul bo'lish.
 2.2.9. Kompaniya rasmiy axborotlari, shu jumladan ko'rsatilayotgan Xizmatlar ro'yxatidagi, tariflar, Xizmatlarni ko'rsatish tartibi va shartlaridagi o'zgarishlar haqidagi axborotlar bilan ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Kompaniyaning www.ucell.uz rasmiy veb-sayti orqali mustaqil ravishda tanishib borish.
 2.2.10. Kutilmagan xarajatlarning oldini olish maqsadida, Xizmatlardan foydalanishni boshlashdan avval shaxsiy hisobining holatini, raqami o'chiriladigan chegara miqdorini, foydalanishi mumkin bo'lgan daqiqalar/megabaytlar trafigi va SMS qoldig'ini tekshirish. Bunda Kompaniya ko'rsatilgan Xizmatlar uchun qayta hisob-kitob qilmaslikka haqli.

3. Tomonlarning huquqlari

3.1. Kompaniya quyidagi huquqlarga ega:
 3.1.1. Bir tomonlama tartibda Shartnoma shartlarini, tariflarini, xizmat ko'rsatish shartlarini, Xizmatlar uchun haq to'lashning shartlari va shaklini o'zgartirish.
 3.1.2. Quyidagi holatlarda Mijozning barcha abonent raqamlari bo'yicha Xizmatlar ko'rsatishni cheklash yoki to'xtatib qo'yish:
 a) Mijoz tomonidan Shartnomaning 2.2.6-bandi bajarilmasa;
 b) Mijozning shaxsiy hisobidagi mablag' miqdori Kompaniya tomonidan o'rnatilgan o'chirish chegarasidan past darajaga tushsa;
 c) qarzdorlik o'z vaqtida yopilmasa;
 d) Mijoz tomonidan Shartnomaning boshqa shartlari buzilsa, shuningdek, Kompaniya tarif rejalaridan va Xizmatlaridan foydalanish qoidalarini buzilsa;
 e) Mijoz tomonidan Kompaniyaga, shuningdek boshqa mijozlarga va/yoki uchinchi shaxslarga Kompaniya Xizmatlaridan quyidagicha foydalanish orqali zarar yetkazilsa: mavjud bo'lmagan to'lov kartalarini faollashtirishga bir necha marta urinishni amalga oshirish, shuningdek, Kompaniya bilan yozma kelishuvsiz holda abonent raqamini lotereyalari, ovoz berishlar, tanlovlar, reklama, so'rovlar, ommaviy tarqatmalar uchun ishlatish;
 f) aloqa va IP-telefoniya tarmoqlariga shlyuzlar o'rnatasa, himoyalangan kompyuter tizimiga va telekommunikatsiyalar tarmoqlariga ulardan foydalanish hamda xalqaro trafikni o'rnatilgan himoya tizimlarini cheklab o'tkazish maqsadida noqonuniy kirish uchun, shuningdek o'zi foydalanishi yoki foydalanish va tarqatish uchun maxsus dasturiy yoxud qurilmaviy vositalar tayyorlasa, shuningdek, ushbu maqsadlarga hamda Kompaniyaning aloqa jihozlari yoki qurilmalarining ish faoliyatini buzilishiga olib keluvchi boshqa tadbirlar o'tkazishga mo'ljallangan dasturiy va qurilmaviy vositalarni saqlasa hamda ularning ishlashi uchun sharoitlar yaratib bersa;
 g) Mijoz (yuridik shaxslardan tashqari) o'z abonent raqamlarini foydalanish uchun uchinchi shaxslarga bersa va Kompaniya tomonidan bunday holat aniqlansa;
 h) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda Kompaniyaning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Xizmatlarni ko'rsatish qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda.
 To'xtatib qo'yish - Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha o'zining bajarilmagan majburiyatlarini bajarish/qoplash va Xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatishga olib kelgan sabablarni bartaraf etishiga qadar Xizmatlar ko'rsatishning to'xtatib qo'yilishini anglatadi.
 3.1.3. Shartnomaga qo'shimcha «A» Ilovada ko'rsatilgan abonent raqam(lar)ini quyidagi hollarda bir tomonlama tartibda tizimdan o'chirish:
 a) ko'rsatilgan Xizmatlar haqi to'lanmaganligi bo'yicha Mijozda qarzdorlik yuzaga kelganidan keyin 30 kun o'tganidan so'ng;
 b) Kompaniyaning amaldagi Prays-listlarida va/yoki axborot materiallarida, shu jumladan Kompaniyaning rasmiy veb-saytida aks ettirilgan muddat tugagach Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha Xizmatlardan foydalanilmaganida, shu jumladan Mijoz balansi musbat holatda bo'lsa ham;
 c) Shartnomaning 3.1.2-bandi «f» va «g» qismlari talablari buzilganida.
 3.1.4. Ishlab chiqarish zaruriyati bilan bog'liq vaziyatlarda Mijozning abonent raqamini o'zgartirish; bunda abonent raqam(lar)ini o'zgartirishdan kamida 10 (o'n) kun oldin uni bundan xabardor qilgan holda.
 3.1.5. Xizmat ko'rsatish jarayoni mobaynida Mijoz shaxsiy ma'lumotlarining bir qismi Xizmat ko'rsatilishining uzluksizligi va to'g'irliligi ta'minlash uchun uchinchi shaxslarga berilishi mumkin. Mijoz ushbu Shartnomani imzolab, Kompaniya tarmog'i orqali ko'rsatiladigan qo'shimcha kontent xizmatlarga ulanish uchun so'rovnoma yuborarkan, Kompaniya tomonidan Mijozning shaxsiy ma'lumotlari, qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatuvchi uchinchi shaxslarga berilishiga o'z roziligini beradi. Mijozning qo'shimcha kontent xizmatlardan o'chirilishi uning o'z shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish va ularni qayta ishlashga roziligining qaytib olinishini bildiradi. Uskunaning texnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, avval o'tkazilgan ma'lumotlar tegishli tizimlarda saqlanishi mumkin. Bunda, o'z ichiga trafik hamda moliyaviy ma'lumotlarni oladigan va faqat ular bilan cheklanmaydigan shaxsiy ma'lumotlar Kompaniya tomonidan faqatgina xizmat ko'rsatish uchun yig'iladi, qo'llaniladi hamda ular qayta ishlanadi. Ularning butligi va maxfiyligi Kompaniya tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda kafolatlanadi.
 3.1.6. Hisobga olish, tarifkatsiya tizimida texnik nosozliklar vujudga kelgan hollarda qo'shimcha rejali/rejadan tashqari ishlar o'tkazilganida, Kompaniya tarifkatsiya qilmasdan Xizmatlarni ko'rsatishda davom etish va nosozliklar bartaraf qilingandan keyin tarifkatsiya qilish huquqini o'zida qoldiradi.
 3.1.7. Kompaniyaning tegishli texnik imkoniyatlari bo'lmay qolganida, Xizmatlarni qisman yoki to'liqicha ko'rsatishni rad etish.
3.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:
 3.2.1. Kompaniya tomonidan o'rnatilgan tartibga muvofiq tanlangan Xizmatlar ro'yxatini o'zgartirish.
 3.2.2. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda Shartnomaning ijro etilishi bo'yicha Kompaniyaga e'tiroz bildirish.
 3.2.3. Kompaniya oldida qarzdorligi bo'lmagan holda, Kompaniya tomonidan o'rnatilgan abonent raqam(lar)ini/Shartnomani qayta rasmiylashtirish.

4.

Hisob-kitoblar tartibi

- 4.1. Shartnoma bo'yicha Xizmatlar haqi Kompaniyaning amaldagi tariflariga muvofiq Mijoz tomonidan to'lanadi.
- 4.2. Tomonlar Xizmatlar uchun barcha narxlar, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqa holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so'mda ko'rsatilishi va hisoblanishiga kelishib olishdi.
- 4.3. Mijozga Xizmatlarning ko'rsatilishi Shartnomaning 2.2.2 va 2.2.3-bandlariga muvofiq, oldindan to'lov qilish shartlari asosida amalga oshiriladi. Oldindan to'lov Mijozning har bir abonent raqami uchun tanlangan Xizmatlar ro'yxatiga va Kompaniyaning amaldagi tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 4.4. Kompaniya Xizmatlarining haqini to'lash Mijoz tomonidan quyidagi usullardan biri orqali amalga oshirilishi mumkin:
 - 4.4.1. Jismoniy shaxslar uchun:
 - 4.4.1.1. To'lov kartalarida ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq tarzda Yagona to'lov kartasini faollashtirish orqali;
 - 4.4.1.2. Kompaniyaning sotuv va xizmat ko'rsatish ofislarida naqd pul to'lovi orqali;
 - 4.4.1.3. jismoniy shaxsning bank plastik kartasi orqali;
 - 4.4.1.4. to'lov tizimlari, agentlik tarmoqlari va boshqalar orqali.
 - 4.4.2. Yuridik shaxslar uchun:
 - 4.4.2.1. naqd pulsiz to'lov orqali (Mijozning korporativ plastik kartasi yoki bank orqali to'lov),
 - 4.4.3. Mablag'lar Mijozning shaxsiy hisobiga tushgan paytdan boshlab to'lov amalga oshirilgan hisoblanadi.
- 4.5. Tomonlarning hisob-kitoblarida Hisobot davri bir kalenda o'ya teng qilib olinadi (o'ying birinchi sanasi - hisobot davrining boshi, o'ying so'nggi sanasi - hisobot davrining oxiri).
- 4.6. Hisob-fakturalar 2.1.4-bandga muvofiq shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan Mijozlar uchun Xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lov valyutasi va to'lash shakli O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanadi.
- 4.7. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-fakturalar hisobot davri tugaganidan keyin Kompaniya tomonidan Soliq.uz soliq veb-sayti orqali elektron ko'rinishda hisobot kunidan keyingi o'ying 10-sanasigacha beriladi va Mijoz tomonidan Kompaniya tomonidan belgilangan muddatda to'lanadi. Mijoz tomonidan hisobning yoki to'lovni amalga oshirish zarurati haqidagi bildirishnomaning olinmasligi yoki vaqtida olinmasligi Mijozning Xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortishi uchun asos bo'la olmaydi. Mijoz tafsilotlarni va to'lov hisobini qo'shimcha ravishda so'rashi va o'z manzila elektron pochta orqali yoki Kompaniyaning ofisida chop etilgan ko'rinishda olishi mumkin. Kompaniya har bir hisobot davri tugaganidan keyin O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi Nizomga muvofiq, mijoz (yuridik shaxs) ning bank hisob raqamiga akseptli va akseptsiz to'lov talablarini qo'yish huquqiga ega.
- 4.8. Agar Kompaniya va Mijoz o'rtasida bir nechta Shartnoma tuzilgan bo'lsa, Kompaniya shunday Shartnomalarning biri bo'yicha Mijozdan kelgan to'lovni Mijozning boshqa Shartnomasi bo'yicha hosil bo'lgan qarzdorlikni yopishga yo'naltirishga (o'tkazishga) haqli.
- 4.9. Roumingda ko'rsatilgan Xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblar ko'rsatilgan Xizmatlar bo'yicha rouming-hamkor Operatorlardan Kompaniyaga kelgan ma'lumotlarga muvofiq amalga oshiriladi.

5.

Tomonlarning javobgarliklari

- 5.1. Kompaniya faqat Mijozga to'g'ridan-to'g'ri yetkazilgan va isbotlangan ziyonlar uchun javobgar bo'ladi. Bilvosita ziyonlar, ma'naviy zarar, qo'ldan chiqarilgan foyda va hokazolar qoplab berilmaydi.
- 5.2. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan tarzda javobgar bo'ladilar.
- 5.3. Qarzdorlik yuzaga kelganida vaqtincha, uning qoplanishiga qadar, Xizmatlarni ko'rsatish to'xtatib turilishi mumkin. Mijoz qarzdorlikni yopmagan holatda, Kompaniya kechikishning har bir kuni uchun qarzdorlik qiymatining 0,4% hajmida penya hisoblashga haqli, ammo penya miqdori qarzdorlik qiymatining 50% idan oshmasligi kerak. Penyaning hisoblanishi qarzdorlik paydo bo'lgan paytdan boshlanadi. Qarzdorlik yuzaga kelganidan keyingi 30 (o'ttiz) kun mobaynida uning Mijoz tomonidan yopilmasligi Xizmatlar ko'rsatishning butkul to'xtatilishiga olib kelishi mumkin, va Kompaniya abonent raqam(lar)ini tizimdan o'chirishga va/yoki Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli. Shartnoma amal qilishining tugatilishi Tomonlarni u bo'yicha qisman yoki umuman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.
- 5.4. Tomonlar Shartnomaga ko'ra o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki yetarlicha bajarmaganlik uchun javobgarlikdan, agar bunday bajarilmaslik Shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan yengilmas kuch vaziyatlarining natijasi bo'lsagina ozod etiladi. Yengib bo'lmaz kuch vaziyatlari deganda, Tomonlar mavjud vijatalar yordamida oldini ola bilmaydigan favqulodda hodisalar yoki vaziyatlar tushuniladi. Bunday «favqulodda hodisalar yoki vaziyatlar»ga quyidagilar kiradi: yong'inlar, uchinchi shaxslarning harakatlari, tabiiy ofatlar (suv toshqini, zilzila va boshqalar), harbiy harakatlar, O'zbekiston Respublikasi vakolatli boshqaruv organlarining harakatlari yoki me'yoriy aktlari, shuningdek, Tomonlarning idrokli nazorati chegaralaridan tashqariga chiqadigan, mohiyatining favqulodda ekanini Tomonlar avvaldan ko'ra bilishi va oldini olishi imkonsiz bo'lgan har qanday boshqa vaziyatlar.
- 5.5. Kompaniya uchinchi shaxslarning harakatlari, abonent tomonidan abonent qurilmasidan noto'g'ri foydalanganlik, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi muvofiqlik guvohnomasiga ega bo'lmagan va/yoki O'zbekiston Respublikasining belgilangan standart talablariga javob bermagan abonent qurilmasidan foydalanish hollari natijasida kelib chiqqan Xizmatlarni ko'rsatish imkonsizligi uchun javobgar sanalmaydi.
- 5.6. Mijoz telekommunikatsiya sohasidagi qonunchilik me'yorlarini buzganlik uchun, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq tarzda javobgar bo'ladi.

6.

Shartnomaning bekor qilinishi

- 6.1. Mijoz ko'zda tutilgan bekor qilish sanasidan kamda 10 (o'n) kun oldin bu haqda Kompaniyani yozma tarzda ogohlantirib, Shartnomani bekor qilishi mumkin.
- 6.2. Kompaniya mazkur Shartnomaning 3.1.2. va 3.1.3-bandlariga muvofiq Xizmatlarni ko'rsatish to'xtatilganidan keyin 30 (o'ttiz) kun o'tgach, bu haqda Mijozni ogohlantirib o'tirmasdan, Shartnomani bekor qilishi mumkin.
- 6.3. Ushbu Shartnoma bekor qilinganida, Tomonlar o'zlarining barcha majburiyatlari bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishlari kerak. Shartnoma bekor qilinganida Mijozning shaxsiy hisobidagi mablag' qoldig'i O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan talab qilish muddati mobaynida qaytarilishi mumkin. Pul mablag'larining qoldig'ini qaytarish O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida, Mijozning hisob raqamiga, agar Mijoz jismoniy shaxs bo'lsa - Mijozning plastik kartasiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 6.4. Pul mablag'larini qaytarish Kompaniya tomonidan faqat naqd pulsiz shaklda, pul mablag'larini Mijozning bank hisobiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 6.5. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan Mijozlarga pul mablag'larini qaytarish valyutasi va tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi.

7.

Qolgan qoidalar

- 7.1. Mijozga ko'rsatilayotgan Xizmatlar radioto'lqinlar tarqalishining tabiiy sharoitlari sababli, yomonlashishi, uzilishi yoki shovqinlar bilan kuzatilishi mumkin; shuningdek, konstruktiv xususiyatlar sababli, Kompaniya vakolati doirasidan tashqarida bo'lgan, boshqa mobil va stasionar aloqa tarmoqlarining Operatorlari telefon aloqasining sifatiga bog'liq bo'ladi.
- 7.2. Kompaniya Xizmatlarni, o'zining texnik imkoniyatlari va xizmat ko'rsatish doirasini inobatga olgan holda ko'rsatadi. Mijoz Kompaniyaning xizmat ko'rsatish doirasi haqidagi ma'lumot bilan tanishib chiqqan va taqdim etiluvchi aloqa sifati va ishonchiligi ko'ra xususiyatlariga, Kompaniya Xizmatlarini ko'rsatish qoidalari va shartlariga rozilik bildirgan.
- 7.3. Kompaniya O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining qarorlarini bajarish bo'yicha ishlarni, shuningdek, xizmatlar ko'rsatilishi sifatining vaqtincha yomonlashishi va uzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, ishlab chiqarish zaruriyati bilan bog'liq (profilaktika, ta'mirlash va h.k.) ishlarni olib borish huquqini o'zida saqlab qoladi. Mijoz, agar ko'rsatiladigan Xizmatlar sifati yomonlashishi va uzilishlar davri uzluksiz ravishda 24 soatdan oshmagan taqdirda, Kompaniya uning oldida javobgar bo'lmisligiga o'z roziligini bildiradi.
- 7.4. Mijoz kelajakda Shartnomani tuzish shakli va uning shartlari Kompaniya tomonidan bir tomonlama tartibda o'zgartirilishi va u mazkur Shartnoma o'rniga qo'llanishi mumkinligiga so'zsiz rozilik beradi. Yangi shaklidagi Shartnomaning (yangi shartnomaning) yangi shartlari Kompaniya rasmiy veb-saytida e'lon qilingan paytdan boshlab, Mijozlarga Xizmatlarni ko'rsatish yangi shartnoma shartlari asosida belgilanadi. Bunda mazkur Shartnomani imzolash yoki qayta imzolash talab etilmaydi. Yangi shartnoma shartlariga rozi bo'lmagan taqdirda, Mijoz yangi shartnomaning Kompaniya rasmiy veb-saytida e'lon qilinganidan keyingi 30 kun mobaynida yangi shartnoma shartlarini qabul qilishni rad etishi haqida Kompaniyaga yozma tarzda xabar berishga haqli. Ko'rsatilgan muddatda Mijozdan shartnoma shartlarini qabul qilishni rad etishi haqida ariza tushmagani, shuningdek, Mijoz tomonidan harakatlarning amalga oshirilishi yoki davom ettirilishi (amalda Xizmatlardan foydalanish) Mijozning mazkur Shartnoma o'rniga yangi shartnoma shartlarining so'zsiz va to'liq qabul qilinishini anglatadi. Bunday holatda Shartnomaning 7.9-bandi talablari amal qilmaydi.
- 7.5. Tomonlar Shartnomani hamda uning tuzilishi, bajarilishi, o'zgartirilishi va bekor qilinishi bilan bog'liq boshqa hujjatlarni imzolashda Kompaniya vakolatli shaxsining imzosi faksimile tarzida qo'yilishi mumkinligiga kelishib oldilar.
- 7.6. Tomonlar yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni faqat muzokara yo'li bilan bartaraf etish uchun hamma harakatlarni amalga oshiradilar. Muzokaralar yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf qilish imkoniyati mavjud bo'lmaganida, tomonlar O'zbekiston Respublikasi sud organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda murojaat qiladilar.
- 7.7. Mazkur Shartnomada tartibga solinmagan masalalarda tomonlar mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish Qoidalariga va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligining boshqa normativ-huquqiy aktlariga, shuningdek, Kompaniyaning ichki hujjatlariga, Kompaniya rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Xizmatlarni ko'rsatish shartlari va qoidalariga asoslanadilar.
- 7.8. Shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda bayon etilgan va uni Shartnomaning 2.1.3-bandi talablarini hisobga olgan holda har ikkala Tomon imzolagan bo'lsa, Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 7.9. Shartnoma uni Tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va toki Tomonlardan biri uni bekor qilish istagini bayon etmaguniga qadar, muddatsiz xarakterga egadir.
- 7.10. Shartnoma 2 nusxada o'zbek tilida tuzildi. Har ikkala nusxasi bir xil yuridik kuchga egadir.
- 7.11. Mazkur Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega, o'zbek, ingliz va rus tillarida nashr etilgan. Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, o'zbek tilidagi tahriri ustuvor hisoblanadi.
- 7.12. Shartnoma imzolanishi bilan Tomonlar o'rtasida avval olib borilgan yozishma va muzokaralar o'z kuchini yo'qotadi.

8. Tomonlarning imzolari

Mijoz:

Kompaniya:

Yekunpeck. mynca. Tok. ushbu. u

«COSCOM» mas'uliyati cheklangan jamiyati («Ucell» SB)

Imzo: *A. ...*

Imzo: *Alles...*

Sana: << 20 >> y. M.O.

Sana: 20.07.2018 M.O.



Yekunpeck. mynca. Tok. ushbu. u